



KO‘ZI OJIZ O‘QUVCHILARDA MATEMATIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Boynazarov Ravshanbek Rashidovich

*Surxondaryo viloyat ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarga
ixtisoslashtirilgan internat-maktab matematika fani o‘qituvchisi*

Tel: 976391784

boynazarovravshanbek4@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari yoritilgan. Matematik tafakkurning shakllanishida ta‘lim jarayonining o‘rni, dars turlari, qiziqarli didaktik vositalar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda matematik tafakkurni rivojlantirishda individual yondashuv va maxsus metodik vositalarning ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari matematik tafakkurni rivojlantirish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi va intellektual salohiyatini oshirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: Matematik tafakkur, boshlang‘ich ta‘lim, pedagogik yondashuv, qiziqarli matematik o‘yinlar, didaktik vositalar, mantiqiy fikrlash, ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar, interfaol ta‘lim, matematik kompetensiya.


МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ С НАРУШЕНИЕМ ЗРЕНИЯ

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические и психологические основы развития математического мышления учащихся начальных классов. Анализируется роль образовательного процесса, типов уроков, занимательных дидактических средств и современных педагогических технологий в формировании математического мышления. Также раскрывается значение индивидуального подхода и специальных методических средств в развитии математического мышления у учащихся с нарушением зрения. Результаты исследования подтверждают, что развитие математического мышления является важным фактором повышения логического мышления и интеллектуального потенциала учащихся.

Ключевые слова: Математическое мышление, начальное образование, педагогический подход, математические игры, дидактические средства, логическое мышление, учащиеся с нарушением зрения, интерактивное обучение, математическая компетентность.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING MATHEMATICAL THINKING IN VISUALLY IMPAIRED STUDENTS

Abstract: This article examines the pedagogical and psychological foundations of developing mathematical thinking in primary school students. It analyzes the role of the educational process, lesson types, engaging didactic tools, and modern pedagogical



technologies in the formation of mathematical thinking. The study also highlights the importance of individual approaches and special methodological tools in developing mathematical thinking in students with visual impairments. The results confirm that the development of mathematical thinking is an important factor in improving students' logical thinking and intellectual potential.

Keywords: Mathematical thinking, primary education, pedagogical approach, mathematical games, didactic tools, logical thinking, visually impaired students, interactive learning, mathematical competence.


Kirish:

XXI asr axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davr bo'lib, bu jarayonda ta'lim tizimini takomillashtirish, o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish va ularni sifatli bilim hamda tarbiya bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash hamda ularni kasb-hunarga yo'naltirish masalalari ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Mazkur jarayonda matematika fanining o'rnini alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning o'qitilishiga bo'lgan yondashuvlar ham tubdan yangilanmoqda. Ayniqsa, ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda matematik tafakkurni rivojlantirish, ularda matematik tasavvur va idrokni shakllantirish muhim pedagogik muammo sifatida qaraladi.

Matematik tafakkur o'quvchilarning analitik fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, matematik amallarni ongli ravishda bajarish hamda masalalarni hal etish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu tafakkurni rivojlantirish uzluksiz va tizimli pedagogik faoliyatni talab etadi. Shu bois, ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda individual yondashuvni qo'llash, ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning qobiliyatlarini ochish, ularga qulay ta'lim sharoitlarini yaratish hamda samarali o'qitish metodlarini qo'llash orqali ularning matematik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu esa, maxsus pedagogik yondashuvlarni talab etadi.

Shu maqsadda quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:



matematika faniga oid o'quv dasturlari va didaktik materiallarni ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga moslashtirish;

har bir mashg'ulotni puxta pedagogik tayyorgarlik asosida tashkil etish;

matematik tasavvurlarni shakllantirishda maxsus tiflotexnik vositalar va belgilar tizimidan samarali foydalanish;

o'quvchilarda mustaqil fikrlash va amaliy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish.


Natijada, mazkur yondashuvlar asosida ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish, ularning bilim olish jarayonini samarali tashkil etish hamda ijtimoiy hayotga moslashuvini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va natijalar

“O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida uning aqliy intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu borada, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatini shakllantirish imkoniyatlari kengroq bo'lib hisoblanadi, chunki boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning aqliy qobiliyati, diqqati fikrlash darajasi faol rivojlanadi. Bir qator psixolog va pedagog olimlar: A.V.Petrovskiy, B.M.Teplov, V.A.Krutetskiy, E.G'oziyev, G'.Shoumarov, O.Roziqov, B.Adizov ta'kidlashlaricha,- bu davrda o'quv faoliyati ta'sirida bolalarning ruhiy faoliyati, diqqati, xotirasi, idrok etish darajasi, tafakkuri, his-tuyg'usi kabi jarayonlar rivojlanadi. Bundan kelib chiqadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematik bilimlarni o'rgatish bilan birga ularni ichki ruhiy olamini, diqqat, xotira, idrok etish darajalari hamda tafakkurini ham shakllantirib borar ekanmiz.

Sharq mutafakkirlari: Imom al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud az-Zamaxshariy, Burhoniddin Marg'iloniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Husayn Voiz Koshifiy, Ahmad Donish va boshqalar asarlarida yosh avlodga puxta va mustahkam bilim berishda ularning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, iste'dodini takomillashtirishga alohida e'tibor berilgan.”¹⁴

¹⁴ Sadriddinova Z.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirish yo'llari. 44-son_1-to'plam_May-2025. <https://scientific-ijl.com/>. B. 108 [106-113.pdf](#)



“S.L.Rubinshteyn tafakkur operatsiyalarining mustahkamlanishi va takomillashishi jarayonida “tafakkur” shakllanadi va keyin qobiliyat sifatida intellekt qaror topadi” – deb ko‘rsatadi. Bu qoida va tushunchalarning uzviy o‘zaro bog‘liqligini va shu bilan bir vaqtda, ularning mustaqil ahamiyatini ko‘rsatadi.

Tafakkur haqida Alisher Navoiy bobomizning bir gaplari borki —Har ishni qildi odamzod, tafakkur birla qildi oni bunyod. Quyidagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkin ki, matematika fani har bir fanga asos bo‘lib, insonni tafakkurini shakllantirishga yordam beradi.”¹⁵

Boshlang‘ich sinf bosqichi o‘quvchi shaxsining aqliy va ijodiy rivojlanishida eng muhim davr hisoblanadi. Bu davrda bola psixikasining asosiy jarayonlari — diqqat, xotira, idrok va tafakkur — jadal shakllanish bosqichida bo‘ladi, shu sababli ta‘lim jarayoni ularni rivojlantirishga yo‘naltirilishi zarur. Matematik ta‘lim aynan shu psixik jarayonlarni faollashtiruvchi vosita sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning nafaqat matematik bilimlarini, balki umumiy intellektual salohiyatini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, tarixiy-pedagogik manbalar va mutafakkirlar merosi ham ta‘lim jarayonida ijodiy yondashuv va tafakkurni rivojlantirish g‘oyasining qadimdan mavjud ekanligini tasdiqlaydi. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning har tomonlama kamol topishida bilim va tafakkurning uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, o‘quvchilarda matematik tafakkurni rivojlantirish jarayoni psixologik, pedagogik va metodik asosga ega bo‘lgan tizimli faoliyat bo‘lib, u ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

“Matematikadan boshlang‘ich ta‘lim-tarbiyaviy vazifalarini nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal etishi mumkin. Bu ilmiy dunyo yoqarash, psixologiya, didaktika, matematikani o‘qitish nazariyasini (matematika didaktikasi) o‘z ichiga oladi. Biroq birgina nazariy bilimlarning o‘zi yetarli emas. O‘qitishning ma‘lum mazmuni va o‘qituvchilarning aqliy faoliyati saviyasi bilan ta‘silatlanadigan u yoki bu o‘quv Yo‘nalishi uchun eng samarali

¹⁵ Sadriddinova Z.M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirish yo‘llari. 44-son 1-to‘plam_May-2025. <https://scientific-ijl.com/>. B. 109 [106-113.pdf](#)

usullarni qo‘llay bilish darsga tayyorlanishda yoki darsning o‘zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishni bilishi zarur.”¹⁶

“Matematik qobiliyat – bu o‘quvchining matematik bilimlarni tez va samarali o‘zlashtirish, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilishga bo‘lgan layoqatidir. Bu qobiliyat quyidagi komponentlardan iborat: mantiqiy tafakkur; analitik fikrlash; tezkor hisoblash; muammoli vaziyatlarni hal qilish.

Matematik to‘garaklar. Qiziqarli va murakkab masalalar yechiladi. Matematik musobaqalar Bellashuv orqali bilimlar mustahkamlanadi. Viktorinalar Tezkor fikrlashni rivojlantiradi. Didaktik o‘yinlar. O‘yin orqali o‘rganish samarali kechadi.”¹⁷

“Boshlang‘ich ta’limda matematikadan Davlat Ta’lim Standartlari talablariga o‘quvchilarning matematik mulohazalar etish salohiyatlarini shakllantirish orqali erishiladi. Ma’lumki mustaqil fikr, mustaqil faoliyat natijasida hosil bo‘ladi. Matematika ta’limi mazmuniga o‘quvchilarning mustaqil faoliyatlarini kuchaytirishga imkon beruvchi amaliy ishlar va rivojlantiruvchi topshiriqlar kiritish nihoyatda yaxshi natijalar beradi. Mustaqil fikrlash:

- o‘quvchilarning tafakkur doirasini ijodiy fikrlash salohiyatini kengaytiradi;
- o‘quvchilarning yangi o‘quv vazifalari va muammolarini mustaqil yecha olishga hamda munozara yurita olishga bo‘lgan tayyorgarlik va qobiliyatlarini rivojlantiradi;
- bolalarning o‘ziga xos xususiyatlarini namayon qilish darajasini oshiradi va o‘quvchilarda muhim o‘quv ko‘nikmalari hamda qobiliyatlarini rivojlantiradi. (xususan matematik fikrlash, matematik va mos ravishdagi belgilashlardan foydalana olish);
- matematik ifodalarni izohlay oladi;
- natijalarni izlahlab, hukm chiqara oladi;

¹⁶ M.E. Jumayev, Z.O‘.Tadjiyeva. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. T., «Fan va texnologiya», 2005. 312 bet. B.5

¹⁷ Xalkuziyeva Y.A., Amanova M.M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik qobiliyatlarni rivojlantirishda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning ahamiyati. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Volume-14| Issue-4| 2026 Published:|22-04-2026| B. 211 [View of BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA MATEMATIK QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARNING AHAMIYATI](#)

- o'quvchilarning intilishini, qiziqishlarini, yo'naltirish va shakllantirish, o'qishga bo'lgan istak, ishtiyoq hamda ta'lim olish uchun kerakli shart – sharoitni belgilab olishga imkon beradi.”¹⁸

“Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:


- o'quvchilarga ma'lum bir dastur asosida matematik bilimlar tizimini berish;
- o'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib toptirish;
- o'quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o'rgatish. bunday bilimlar berish orqali esa o'quvchilarning fazoviy tasavvur qilishlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi.

Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi o'z oldiga quyidagilarni qo'yadi:

- o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. bu g'oya bilish nazariyasi asosida amalga oshiriladi;
- o'quvchilarda matematikani o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalash.
- o'quvchilarda matematik tafakkurni va matematik madaniyatni shakllantirish;

Matematik o'qitishning amaliy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

¹⁸ Badalov D.A. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. <https://www.bing.com/ck/a?!&p=4f8a2bb7fef241c2a1aade481001fa4b860054fc58a11178a23804b210afca57JmItdHM9MTc3NjY0MzlwMA&ptn=3&ver=2&hsh=4&fclid=0865bd5a-467b-6357-3878-ab20472c6262&psq=boshlang%27ich+sinf+ko%27zi+ojiz+o%27quvchilarning+matematik+tafakkurini+rivojlantirish&u=a1aHR0cHM6Ly9pbG1peWFuanVtYW5sYXludXovdXBsb2Fkcy9jb25mZXJlbnNlcY8wMDEyL1MtMTM4LnBkZg>



matematika kursida nazariy bilimlarni kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalar yechishga tadbir qila olishga o'rgatish;

matematikani o'qitish texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish;


o'quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o'rgatish.

»19

Matematika o'qitish jarayoni o'quvchilarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga, balki ularning intellektual va shaxsiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Maqsad va vazifalarning o'zaro uyg'unligi o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, fazoviy tasavvur hamda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, matematik bilimlarni amaliy hayot bilan bog'lash o'quvchilarning mustaqil fikrlashini kuchaytiradi va o'rganilgan bilimlarning mustahkamlanishiga yordam beradi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali vositalar va texnik imkoniyatlar esa mavzuni chuqurroq anglash va qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, matematika o'qitishning maqsad va vazifalari o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi yaxlit pedagogik tizim sifatida baholanadi.

“I-IV sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifasi bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda ulardagi matematika kursi bo'yicha qanday darajada tayyorgarligi borligiga bog'liq. Shuning uchun 1-sinf o'quvchilarining bilimlarini aniqlash, sinf o'quvchilarining bilimlarini tenglashtirish, ya'ni past bilimga ega bo'lgan o'quvchilarning bilimlarini yaxshi biladigan o'quvchilarga yetkazib olish vazifasi turadi. O'qituvchi quyidagi tartibda o'quvchilar bilimini maxsus daftarga hisobga olib boradi:

¹⁹ ALIXONOV S. MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI. // Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. B-7-8



Nechagacha sanashni biladi?

Nechagacha sonlarni qO'shishni biladi?

Nechagacha sonlarni ayirishni biladi?

$>$, $<$, $=$ belgilarini ishlata oladimi?

Noma'lumlar bilan berilgan qo'shish va ayirishda bu noma'lumlarni topa oladimi?

Qaysi shakllarning nomlarini biladi va chiza oladi?

Nechagacha sonlarni yoza oladi?

O'ngga, chapga, kam, ko'p, "ta", "marta", teng kabilarni farqlay oladimi?

Pul, narx, soat, minut, uzunlik, og'irlik o'lchov birliklari bilan muomala qila oladimi?

»20

“Matematikadan dars turlari

Boshlang'ich sinflarda matematikadan quyidagi dars turlarini ko'rsatish mumkin.

a) o'quvchilarni yangi tushunchalar bilan tanishtirish, yangi bilim va ko'nikmalarni hosil qilish darslari (Bu darslarda hisoblash, grafik yoki masala yechish bilimlari hosil qilinadi);

²⁰ M.E. Jumayev, Z.O' .Tadjiyeva. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. T., «Fan va texnologiya», 2005. 312 bet. B.14





b) turli xil mashqlar yordamida yangi bilim, malaka, ko'nikmalarni mustahkamlash darslari;

d) o'tilganlarni takrorlash, umumlashtirish darslari;

e) keyingi bosqichda xatolarning oldini olish maqsadida mustaqil bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish darslari. Har bir darsda turli xildagi didaktik maqsadlar amalga oshirilishi mumkin:

uy vazifasini tekshirish; darsning va mavzuning maqsadini bayon qilish; oldin o'tilganlarni takrorlash bilan o'quvchilarni yangi materialni o'zlashtirishga tayyorlash; og'zaki hisoblash uchun maxsus mashqlar, yangi materialni o'rganish (darsning asosiy bo'limi);

bollarning oldin o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash; o'rganilgan bilimlarni hisoblash; mashq, bilim va malakalarni qo'llash (darsning asosiy bo'limi);

o'quvchilarni mustaqil ishlatish va uni tekshirish; oldin o'zlashtirilgan materiallarni takrorlash;

uyga vazifa berish; darsni xulosalash.”²¹

Boshlang'ich sinflarda matematikadan dars turlarining to'g'ri tashkil etilishi o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Har bir dars turi o'zining didaktik maqsadi va vazifalariga ega bo'lib, u o'quvchilarda yangi bilimlarni egallash, ularni mustahkamlash hamda amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yangi bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan darslar o'quvchilarda matematik tushunchalarning dastlabki asoslarini shakllantirsa, mustahkamlash va takrorlash darslari ushbu bilimlarning barqarorligini ta'minlaydi. Tekshirish va nazorat darslari esa o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi. Dars jarayonining har bir bosqichida turli didaktik faoliyat turlaridan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularning aqliy faoliyatini rivojlantiradi hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, og'zaki hisoblash mashqlari va mustaqil ishlar o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

²¹ M.E. Jumayev, Z.O'.Tadjiyeva. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. T., «Fan va texnologiya», 2005. 312 bet. B.16




“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini shakllantirish maqsadida qiziqarli matematik o‘yinlar, matematik o‘yinlar, boshqotirmalar, geometrik masala va mashqlar, muammoli arifmetik masalalar, hazil masalalar, matematik mazmundagi topishmoqdagi topishmoqlardan vosita sifatida foydalanish o‘rinlidir. Matematik o‘yinlar o‘quvchilar bilimni boyitishga ularda aqliy faoliyatni o‘stirishga yordam beradi. Matematik o‘yinlar, boshqa termalar o‘ziga hos xususiyatlarga ega bo‘lib, ulardagi o‘quvchilarni o‘ylashga majbur etadigan sharoit, ularning qiziqaliligi o‘quvchilarda aqliy va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Qiziqarli matematik o‘yinlar o‘quvchilarning tafakkurining rivojlanishiga har tomonlama ta’sir etuvchi vosita hisoblanib, uning yordamida aqliy va irodaviy rivojlanish amalga oshiriladi. Fazoviy hayol, matematik tafakkur maqsadga qaratilganligi va maqsadga intilganlik, amaliy vazifalarni yechish uchun amallarning yo‘llarini mustaqil qidirish va topish bularning hammasi birgalikda matematikani muvaffaqiyatli egallashlari uchun talab qilinadi. Bola maktab ostonasiga qadam qo‘yar ekan, o‘zining bo‘lgan qiziqishini yo‘qotmaydi, u avvalgidek o‘yinga o‘ch bo‘ladi. Hatto qiziqarli masalalar ham bolalarda faollikni uyg‘otib, tafakkurni rivojlantiradi.”²²

Mazkur yondashuvlardan ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirishda qiziqarli didaktik vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, matematik o‘yinlar, boshqotirmalar, geometrik topshiriqlar, muammoli arifmetik masalalar hamda topishmoqlar o‘quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtiruvchi samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Bunday faoliyat turlari o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otishi bilan birga, ularning mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, qiziqarli topshiriqlar orqali ta’lim jarayoni o‘quvchi uchun majburiy faoliyat emas, balki qiziqarli va ijodiy jarayonga aylanadi.

Matematik o‘yinlar o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularning aqliy va irodaviy sifatlarini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, fazoviy tasavvur, mantiqiy tafakkur, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat hamda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh

²² Badalov D.A. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MATEMATIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. <https://www.bing.com/ck/a?!&&p=4f8a2bb7fef241c2a1aade481001fa4b860054fc58a11178a23804b210afca57JmltdHM9MTc3NjYOMzlwMA&ptn=3&ver=2&hsh=4&fclid=0865bd5a-467b-6357-3878-ab20472c6262&psq=boshlang%27ich+sinf+ko%27zi+ojiz+o%27quvchilarning+matematik+tafakkurini+rivojlantirish+u=a1aHR0cHM6Ly9pbG1peWFuanVtYW5sYXludXovdXBsb2Fkcy9jb25mZXJlbnNlcY8wMDEyL1MtMTM4LnBkZg>





xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan qiziqarli matematik topshiriqlar ularning tabiiy qiziqishini saqlab qoladi va o'quv faoliyatiga faol jalb etadi. Natijada, o'quvchilarda matematik tafakkur izchil va samarali rivojlanadi.

Xulosa

Shunday qilib, o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish ularning yetarli bilim va amaliy ko'nikmalarni egallashida muhim omil hisoblanadi. Matematika fanini to'g'ri tashkil etilgan pedagogik jarayon asosida o'qitish, zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlardan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.


Bunday yondashuv natijasida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish hamda matematik amallarni ongli ravishda bajarish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa ularning nafaqat matematik bilimlarini, balki umumiy intellektual rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Ayniqsa, ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda matematik tafakkurni rivojlantirish alohida pedagogik yondashuvni talab etadigan muhim vazifa hisoblanadi. Bu jarayonda individual yondashuv, maxsus vositalardan foydalanish hamda moslashtirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, pedagog o'z faoliyatini aniq maqsad, tizimli reja va samarali metodlar asosida tashkil etsa, ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda matematik tafakkurni rivojlantirishda ijobiy natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Khalikov, A. K. (2023). SCIENTIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL ADAPTATION OF YOUNG GRADUATES WITH VISUAL IMPAIRMENTS IN LIFE. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 253-264.
2. Qahramonovich, X. A. (2023). KO 'RISHIDA NUQSONI BO 'LGAN BITIRUVCHI YOSHLARNI MUSTAQIL HAYOTDA IJTIMOIIY MOSLASHUVINI AMALGA OSHIRISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIK. *Science and innovation*, 2(Special Issue 12), 561-563.
3. Qahramonovich, X. A. (2026). VOCATIONAL GUIDANCE OF YOUNG PEOPLE IN THE CONTEXT OF INCLUSIVE EDUCATION. *Shokh Articles Library*, 1(1), 563-566.
4. Khalikov, A. (2024). PROFESSIONAL FAULTS IN THE ACTIVITY OF A TEACHER. *Science and innovation*, 3(B9), 61-63.

- 
5. Khalikov, A. (2023). PRINCIPLES AND METHODS OF INCREASING TEACHING EXCELLENCE IN THE MODERN EDUCATIONAL SPACE. *Science and innovation*, 2(B11), 164-167.
 6. Khalikov, A. (2023). COMMUNICATIVE METHODS OF COMMUNICATION WITH STUDENTS. *Science and innovation*, 2(B11), 491-494.
 7. Khalikov, A. (2023). THE SET OF ABILITIES THAT CHARACTERIZE THE “PEDAGOGICAL SKILL” OF A TEACHER. *Science and innovation*, 2(B11), 160-163.
 8. Khalikov, A. K. (2017). Methodical Bases of Increasing Educational Activities in Legal Education of Students with Limited Vision. *Eastern European Scientific Journal*, (4), 69-71
 9. Sadriddinova Z.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirish yo'llari. 44-son_1-to'plam_May-2025. <https://scientific-jl.com/>. B. 108 106-113.pdf
 10. Sadriddinova Z.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini rivojlantirish yo'llari. 44-son_1-to'plam_May-2025. <https://scientific-jl.com/>. B. 109 106-113.pdf
 11. M.E. Jumayev, Z.O' .Tadjiyeva. Boshlang'ich sinflarda mate matika o'qitish metodikasi. T., «Fan va texnologiya», 2005. 312 bet. B.5
 12. Xalkuziyeva Y.A., Amanova M.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik qobiliyatlarni rivojlantirishda sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ahamiyati. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*. Volume-14| Issue-4| 2026 Published:|22-04-2026| B. 211 View of BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MATEMATIK QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI
 13. Badalov D.A. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MATEMATIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. <https://www.bing.com/ck/a?!&&p=4f8a2bb7fef241c2a1aade481001fa4b860054fc58a11178a23804b210afca57JmldtHM9MTc3NjY0MzIwMA&ptn=3&ver=2&hsh=4&fclid=0865bd5a-467b-6357-3878-ab20472c6262&psq=boshlang%27ich+sinf+ko%27zi+ojiz+o%27quvchilarning+mate matik+tafakkurini+rivojlantirish&u=a1aHR0cHM6Ly9pbG1peWFuanVtYW5sYXludXovdXBsb2Fkcy9jb25mZXJlbnNley8wMDEyL1MtMTM4LnBkZg>
 14. ALIXONOV S. MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI. // Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. B-7-8
 15. M.E. Jumayev, Z.O' .Tadjiyeva. Boshlang'ich sinflarda mate matika o'qitish metodikasi. T., «Fan va texnologiya», 2005. 312 bet. B.14
 16. M.E. Jumayev, Z.O' .Tadjiyeva. Boshlang'ich sinflarda mate matika o'qitish metodikasi. T., «Fan va texnologiya», 2005. 312 bet. B.16
 17. Badalov D.A. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MATEMATIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. <https://www.bing.com/ck/a?!&&p=4f8a2bb7fef241c2a1aade481001fa4b860054fc58a11178a23804b210afca57JmldtHM9MTc3NjY0MzIwMA&ptn=3&ver=2&hsh=4&fclid=0865bd5a-467b-6357-3878-ab20472c6262&psq=boshlang%27ich+sinf+ko%27zi+ojiz+o%27quvchilarning+mate matik+tafakkurini+rivojlantirish&u=a1aHR0cHM6Ly9pbG1peWFuanVtYW5sYXludXovdXBsb2Fkcy9jb25mZXJlbnNley8wMDEyL1MtMTM4LnBkZg>



=0865bd5a-467b-6357-3878-
ab20472c6262&psq=boshlang%27ich+sinf+ko%27zi+ojiz+o%27quvchilarning+mate
matik+tafakkurini+rivojlantirish&u=a1aHR0cHM6Ly9pbG1peWFuanVtYW5sYXIud
XovdXBsb2Fkcy9jb25mZXJlbnNlcy8wMDEyL1MtMTM4LnBkZg

